



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 92 sahifa,
1-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

- Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktabgacha ta'lim tashkiloti metodistining boshqaruv funksiyalari.....	10
Qarshibayeva Dilfuza Xidirbayevna	
Texnologik mashinalar va jihozlar ta'lim yo'nalishi talabalarida kasbiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik qonuniyatlari va metodologik tizimini ishlab chiqish	15
Elmanov Abbos Begmat o'g'li, Mirzaumidov Asilbek Shuxratjonovich	
Katta yoshdagi guruh bolalarida o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini rivojlantirishda o'yinning roli	19
Ergasheva Farangiz Umidjon qizi, Fayzullayev Sharipboy Nurillayevich	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ekologik tafakkurni rivojlantirishning dolzarbligi.....	23
Yaxshiboyeva Nargiza Rustamqulovna	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida inson resurslarini boshqarishda muvozanatlashgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanishning nazariy asoslari	28
Gulmira Jumanova	
Nomoddiy madaniy merosning talaba-yoshlarni yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida tarbiyalashdagi ahamiyati.....	33
Erboyev Suxrob Abdusalomovich	
Maktabgacha yoshdagi bolalar va ularda hissiy-irodaning shakllanishi	37
Davlatova Zebo Haydarovna	
Zamonaviy oilada avlodlararo munosabatlarning pedagogik-psixologik xususiyatlari	40
Ochilova Farida Baxriddinovna	
Maktab va oliy ta'lim muassasalarida qizlar kitobxonligini rivojlantirish metodlari	44
Qo'chqarova Oysha Oltibayevna	
Buyuk allomalar merosidan foydalanishning metodik holati va mavjud muammolari.....	48
Sevara Mamatkarimova	
Futbol o'yinida to'pga kalla bilan zarba berish.....	53
Xolmaxmatov Boburjon Musurmon o'g'li	
Использование современных инновационных методов в процессе обучения русскому языку в иноязычных группах высшего образовательного учреждения.....	56
Курбанова Шайра Исмаиловна	
Maktabgacha ta'lim mutaxassislarini tayyorlashda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ...	60
Kushakova Gulnora Egamkulovna, Muhammadiyeva Shaxzoda Sunnatilla qizi	
Boshlang'ich sinflarda musiqa mashg'ulotlari orqali o'quvchilarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish metodlari	63
Muminova Feruza Farxodovna	
Alisher Navoiy merosining yoshlar ma'naviy-estetik tarbiyasidagi ahamiyati	70
Qayumxo'jayev Botirxo'ja Ikromxo'ja o'g'li	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida amaliy topshiriqlar orqali tayanch kompetensiyalarni shakllantirish metodikasini takomillashtirish	74
Saidova Dilnoza Maripovna	
К вопросу о классификации современной антиутопии.....	78
Дмитрий Валерьевич Пупонин	
Когнитивная гибкость как фактор психологического благополучия старшеклассников в период адаптации к новым образовательным требованиям	82
Муксинова Динора Азаматовна	
Oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilida ta'lim beruvchi professor-o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini baholash: xalqaro tajribalar qiyosiy tahlili va O'zbekiston amaliyoti	87
Baxtiyarova Muniba Ne'matjon qizi	

ALISHER NAVOIY MEROSINING YOSHLAR MA'NAVIY-ESTETIK TARBIYASIDAGI AHAMIYATI

UDK: 821.512.133.09:37.036

Qayumxo'jayev Botirxo'ja Ikromxo'ja o'g'li

Guliston davlat pedagogika instituti, Musiqa ta'limi yo'nalishi talabasi

Ilmiy rahbar: Sattarov Alisher Alikul o'g'li

Guliston davlat pedagogika instituti, "San'atshunoslik" kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Alisher Navoiy ijodiy merosining yoshlar ma'naviy-estetik tarbiyasidagi o'rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Unda XV asr Markaziy Osiyo va Xuroson madaniy muhiti, Navoiy shaxsining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan ijtimoiy-ma'rifiy omillar, shoir asarlarida ilgari surilgan insonparvarlik, adolat, ilm-ma'rifat, komillik hamda ona tiliga hurmat g'oyalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, ma'naviy tarbiya, estetik tarbiya, Sharq mutafakkirlari, komil inson, turkiy adabiyot, yoshlar tarbiyasi, badiiy tafakkur.

Abstract: This article analyzes the role of Alisher Navoi's creative heritage in the spiritual and aesthetic education of young people from a scientific and theoretical perspective. The study highlights the cultural and educational environment of Central Asia and Khorasan in the 15th century, the socio-intellectual factors that influenced the formation of Navoi's personality, as well as the ideas of humanism, justice, enlightenment, moral perfection, and respect for the native language reflected in his works.

Key words: Alisher Navoi, spiritual education, aesthetic education, Eastern thinkers, perfect personality, Turkic literature, youth education, artistic thinking.

Аннотация: В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируется роль творческого наследия Алишер Навои в духовно-эстетическом воспитании молодёжи. В исследовании освещаются культурно-просветительская среда Центральной Азии и Хорасана XV века, социальные и интеллектуальные факторы, оказавшие влияние на формирование личности Навои, а также идеи гуманизма, справедливости, просвещения, нравственного совершенства и уважения к родному языку, отражённые в его произведениях.

Ключевые слова: Алишер Навои, духовное воспитание, эстетическое воспитание, восточные мыслители, совершенная личность, тюркская литература, воспитание молодёжи, художественное мышление.

KIRISH

XV asr Markaziy Osiyo va Xuroson hududlari tarixida siyosiy, iqtisodiy, ilmiy va madaniy jihatdan yuksalish davri sifatida alohida o'rin tutadi. Bu davrda ilm-fan, adabiyot, me'morchilik, musiqa, tasviriy san'at va kitobat madaniyati sezilarli darajada rivojlandi. Ayniqsa, Hirot madaniy muhiti Sharq Uyg'onishining muhim markazlaridan biri bo'lib, bu yerda shoirlar, olimlar, xattotlar, musiqashunoslar va davlat arboblari faoliyat olib bordilar. Ana shunday muhitda Alisher Navoiy ijodi shakllandi va uning merosi nafaqat o'zbek adabiyoti, balki butun turkiy xalqlar ma'naviy hayotida tub burilish yasadi.

Alisher Navoiy ijodining muhim jihati shundaki, u adabiyotni faqat badiiy zavq beruvchi soha sifatida emas, balki insonni tarbiyalovchi, jamiyatni ma'naviy jihatdan sog'lomlashtiruvchi kuch sifatida talqin etdi. Shoir asarlarida inson sha'ni, ilmga intilish, adolat, saxovat, halollik, mehr-oqibat, vatanparvarlik va tilga hurmat kabi g'oyalar yetakchi o'rin egallaydi. Shu bois Navoiy merosini o'rganish bugungi kunda ham faqat adabiyotshunoslik doirasidagi masala bo'lib qolmay, balki pedagogika, estetik tarbiya, madaniyatshunoslik va yoshlar ma'naviyatini shakllantirish bilan bog'liq muhim ilmiy-amaliy yo'nalish hisoblanadi.

Bugungi globallashuv sharoitida yoshlarning badiiy didi, milliy o'zlikni anglash darajasi va ma'naviy qarashlarini mustahkamlash masalasi yanada dolzarb tus olmoqda. Chunki axborot oqimining kuchayishi, turli madaniy ta'sirlarning ortishi yosh avlodning dunyoqarashiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday sharoitda



Alisher Navoiy merosidagi komil inson g'oyasi, ona tiliga ehtirom, adolat va ma'rifatga chaqiriq ta'lim-tarbiya jarayonida muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin ^[2:53].

Sharq mutafakkirlarining estetik merosidan foydalanish yoshlar tarbiyasida muhim imkoniyat yaratishi haqidagi qarashlar zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda ham alohida qayd etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Alisher Navoiy merosi haqida so'z yuritilganda, avvalo, uning ijodi Sharq adabiy-estetik tafakkuri bilan uzviy bog'liq ekanini e'tiborga olish zarur. Navoiy o'zidan oldingi adabiy an'analarni chuqur o'rgangan, ularni ijodiy davom ettirgan va turkiy til imkoniyatlarini yuksak badiiy darajaga olib chiqqan mutafakkirdir. Uning asarlarida insonning ichki olami, axloqiy qiyofasi, ilm va hunarga munosabati, jamiyatdagi o'rni keng yoritiladi. Shu jihatdan Navoiy ijodi badiiy meros bo'lishi bilan birga, tarbiyaviy-falsafiy manba sifatida ham qimmatli hisoblanadi.

Pedagogik tadqiqotlarda Sharq mutafakkirlarining estetik qarashlaridan foydalanish yoshlarni ma'naviy yetuklikka yo'naltirishda muhim omil sifatida baholanadi. Jumladan, estetik meros faqat san'atni tushunish yoki go'zallikni idrok etish bilan cheklanmaydi, balki shaxsning axloqiy tanlovi, tafakkur madaniyati va hayotga munosabatini ham shakllantiradi. Bu holat Navoiy ijodini ta'lim-tarbiya jarayoniga olib kirishda nazariy asos vazifasini bajaradi ^[3:9].

Zamonaviy badiiy ta'limda Sharq falsafiy-estetik qarashlarini qo'llash masalasi ham dolzarb hisoblanadi. Bunday yondashuv o'quvchi va talabalarning nafaqat nazariy bilimini, balki badiiy-estetik fikrlashini, milliy qadriyatlarga munosabatini ham rivojlantiradi.

Navoiy merosini o'rganish jarayonida uning asarlaridagi obrazlar, axloqiy xulosalar, ramziy ifodalar va hayotiy hikmatlar yoshlar tafakkuriga ta'sir etuvchi tarbiyaviy vosita sifatida namoyon bo'ladi ^[4:218]. Mavjud adabiyotlarda yoshlarning estetik didini rivojlantirishda milliy va jahon madaniy merosidan foydalanish masalasi ham alohida o'rganilgan. Bu fikr Navoiy merosiga ham bevosita taalluqlidir, chunki uning ijodida milliylik va umuminsoniylik bir-birini inkor etmaydi, aksincha, o'zaro uyg'unlashadi. Shoir turkiy til asosida milliy adabiy tafakkurni rivojlantirar ekan, insoniyat uchun umumiy bo'lgan ezgulik, adolat va komillik g'oyalarini ilgari surdi.

Musiq, tasviriy san'at va adabiyot orqali estetik tarbiyani rivojlantirishga oid ilmiy qarashlar ham Navoiy merosini zamonaviy ta'lim tizimida qo'llash imkoniyatlarini kengaytiradi. Chunki Navoiy ijodida so'z san'ati, ohangdorlik, ma'no qatlamlari va badiiy tasvir vositalari estetik idrokni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan, san'at vositalari orqali yoshlar dunyoqarashini boyitish haqidagi pedagogik qarashlar mazkur mavzu bilan mantiqan bog'lanadi ^[1:167].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Alisher Navoiy merosini yoshlar tarbiyasi nuqtayi nazaridan o'rganish bir necha yo'nalishda olib borilishi mumkin. Birinchidan, uning ijodi ona tiliga hurmat va milliy o'zlikni anglash manbasi sifatida o'rganiladi. Ikkinchidan, shoir asarlaridagi komil inson g'oyasi axloqiy tarbiya vositasi sifatida talqin qilinadi. Uchinchidan, Navoiy asarlaridagi badiiy-estetik tasvirlar o'quvchi va talabalarning estetik didini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. To'rtinchidan, uning ma'rifatparvarlik faoliyati yoshlarni ilmga, kasbga va ijtimoiy faollikka yo'naltirishda amaliy ahamiyatga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda Alisher Navoiy ijodiy merosining yoshlar ma'naviy-estetik tarbiyasidagi ahamiyatini aniqlash maqsad qilindi.

Tadqiqotning asosiy obyekti sifatida Navoiy merosi, uning adabiy-estetik qarashlari va zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonidagi tarbiyaviy imkoniyatlari tanlandi.

Tadqiqot predmeti esa Navoiy ijodidagi insonparvarlik, komillik, ilm-ma'rifat, adolat va estetik tarbiya g'oyalariining pedagogik talqinidan iborat bo'ldi. Tadqiqot jarayonida tarixiy-tahliliy metoddan foydalanildi. Bu metod orqali XV asr Markaziy Osiyo va Xuroson madaniy muhiti, Hirot adabiy maktabi, Navoiy shaxsining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan ilmiy va ijtimoiy omillar tahlil qilindi. Chunki Navoiy ijodini to'g'ri anglash uchun uni o'z davridan ajratib bo'lmaydi. Uning adabiy-estetik qarashlari aynan temuriylar davri madaniy muhitida, ilm-fan va san'at rivojlangan sharoitda shakllangan.

Shuningdek, mazmuniy tahlil metodi asosida Navoiy asarlarida uchraydigan ma'naviy-axloqiy va estetik g'oyalar o'rganildi. Xususan, "Xamsa", "Lison ut-tayr", g'azallar, ruboiylar va nasriy asarlardagi inson tarbiyasi bilan bog'liq qarashlar umumlashtirildi. Bunda shoirning komil inson haqidagi tasavvuri, ilmga munosabati, adolatli jamiyat haqidagi qarashlari hamda til va madaniyatga bergan bahosi asosiy tahlil mezon sifatida olindi.

Qiyosiy-pedagogik yondashuv orqali Navoiy merosi zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayoni bilan bog'lab tahlil qilindi. Bu yondashuv shoir asarlaridagi g'oyalarni bugungi yoshlar tarbiyasi, badiiy ta'lim, estetik dunyoqarash va milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish imkonini berdi. Jumladan, zamonaviy ta'limda raqamli muhit, musiq,

san'at va adabiy merosdan foydalanish o'quvchilarning ijodiy faolligini oshirishga xizmat qilishi haqidagi qarashlar Navoiy merosini o'qitish jarayoni uchun ham muhimdir ^[5:5].

Tadqiqotda umumlashtirish va ilmiy xulosa chiqarish metodlari ham qo'llanildi. Ushbu metodlar asosida Navoiy merosining yoshlar ma'naviy-estetik tarbiyasidagi asosiy yo'nalishlari belgilandi. Ular quyidagilardan iborat: ona tiliga hurmatni shakllantirish, badiiy-estetik didni rivojlantirish, axloqiy fazilatlarini mustahkamlash, ilm-ma'rifatga qiziqishni kuchaytirish va milliy o'zlikni anglash jarayonini qo'llab-quvvatlash.

TAHLIL VA NATIJALAR

Alisher Navoiy ijodiy merosining eng muhim jihatlaridan biri – uning turkiy til mavqeini yuksaltirish yo'lidagi xizmatidir. Shoir o'z davrida fors-tojik adabiyoti katta mavqega ega bo'lgan bir sharoitda turkiy tilda ham yuksak badiiy asarlar yaratish mumkinligini amalda isbotladi. Bu faqat adabiy hodisa emas edi. Bu jarayon milliy til, milliy tafakkur va madaniy o'zlikni himoya qilish yo'lidagi katta ma'rifiy harakat sifatida baholanishi kerak.

Navoiy asarlarida til masalasi oddiy aloqa vositasi sifatida emas, balki xalq ruhiyati, tarixiy xotira va madaniy qiyofaning ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. U turkiy tilning boy imkoniyatlarini ochib berdi, uni murakkab falsafiy fikrlarni, nozik ruhiy kechinmalarni va yuksak badiiy obrazlarni ifodalash darajasiga olib chiqdi. Bu jihat yoshlarni ona tiliga hurmat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Chunki tilga hurmat – bu o'z tarixiga, madaniyatiga va milliy qadr-qimmatiga hurmatdir. Shoir ijodida komil inson g'oyasi alohida o'rin egallaydi. Navoiy nazarida insonning buyukligi uning mansabi, boyligi yoki tashqi ko'rinishida emas, balki axloqiy pokligi, ilmga intilishi, boshqalarga foyda keltirishi va adolatga sodiqligida namoyon bo'ladi. Uning qahramonlari ko'pincha ichki kurash, ma'naviy izlanish va axloqiy tanlov jarayonida tasvirlanadi. Bu esa yoshlarni hayotdagi har bir qarorga mas'uliyat bilan yondashishga o'rgatadi.

“Xamsa” asari Navoiy badiiy tafakkurining eng yuksak namunalaridan biridir. Undagi dostonlarda muhabbat, sadoqat, ilm, adolat, davlat boshqaruvi, xalq manfaatini himoya qilish, insoniylik va ruhiy kamolot kabi masalalar yoritiladi. Asarda obrazlar shunchaki badiiy bezak uchun emas, balki ma'naviy g'oyani yetkazish uchun xizmat qiladi. Shu sababli “Xamsa”ni o'rganish o'quvchi va talabalarda badiiy idrok, estetik tafakkur va axloqiy xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Navoiy ijodidagi tasavvufiy qarashlar ham tarbiyaviy jihatdan muhimdir. Masalan, “Lison ut-tayr” asarida insonning haqiqatga intilishi, nafsni yengish, ichki poklanish va ruhiy kamolot sari borishi ramziy obrazlar orqali tasvirlanadi. Bu asar yoshlar uchun murakkab falsafiy matn bo'lishi mumkin, lekin uni to'g'ri metodik yondashuv asosida o'rgatish orqali o'quvchilarda o'zini anglash, ichki intizom va ma'naviy mas'uliyat kabi tushunchalarni shakllantirish mumkin. Alisher Navoiy nafaqat shoir, balki davlat arbobi va ma'rifatparvar shaxs sifatida ham katta ahamiyatga ega. U Husayn Boyqaro saroyida turli lavozimlarda faoliyat yuritib, mamlakatning siyosiy va madaniy hayotida ishtirok etdi. Navoiy ilm ahliga homiylik qildi, madrasalar, kutubxonalar, xonaqohlar, ko'priklar va boshqa ijtimoiy inshootlar qurilishiga bosh-qosh bo'ldi. Bu faoliyat uning nazariy g'oyalari amaliy ishlar bilan uyg'un bo'lganini ko'rsatadi.

Yoshlar tarbiyasi nuqtayi nazaridan Navoiyning ma'rifatparvarlik faoliyati alohida e'tiborga loyiq. Chunki u ilmni jamiyat taraqqiyotining asosi deb bildi. Uning qarashlarida ilmli inson faqat o'zi uchun emas, balki xalq va jamiyat uchun foydali bo'lishi kerak. Bu yondashuv bugungi ta'lim tizimi uchun ham muhimdir. Talaba va o'quvchilarni faqat bilim olishga emas, balki olgan bilimni jamiyat foydasiga yo'naltirishga o'rgatish Navoiy merosining amaliy ahamiyatini ko'rsatadi. Navoiy merosining yana bir muhim jihati – undagi estetik tarbiya imkoniyatlaridir. Shoir asarlarida go'zallik tashqi bezak sifatida emas, balki axloqiy va ruhiy uyg'unlik bilan bog'liq holda talqin qilinadi. Uning nazarida chinakam go'zallik ezgulik, halollik, mehr, bilim va pok niyat bilan birlashgandagina mukammal bo'ladi. Bu fikr yoshlarni san'atni faqat shakl yoki bezak sifatida emas, balki ma'no, axloq va hayotiy xulosa manbasi sifatida qabul qilishga yo'naltiradi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida Navoiy merosidan foydalanishning bir necha amaliy yo'nalishlari mavjud. Birinchidan, adabiyot darslarida shoir asarlarini faqat matn tahlili sifatida emas, balki tarbiyaviy suhbat, muammoli savol-javob, bahs-munozara va ijodiy topshiriqlar orqali o'rgatish mumkin. Ikkinchidan, tasviriy san'at va musiqa mashg'ulotlarida Navoiy asarlaridagi obrazlar, ramzlar va estetik g'oyalarni badiiy talqin qilish o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi. Uchinchidan, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda Navoiy hikmatlari, g'azallari va hayotiy qarashlaridan foydalanish yoshlar ongida milliy qadriyatlarga hurmatni kuchaytiradi.

Maktabgacha va umumiy ta'lim bosqichlarida estetik tarbiyaning bosqichma-bosqich olib borilishi ham Navoiy merosini yosh xususiyatlariga mos tarzda o'rgatish zarurligini ko'rsatadi. Masalan, kichik yoshdagi bolalarda go'zallikni idrok etish, ohang, rang, obraz va sodda axloqiy tushunchalar orqali tarbiya berish mumkin. Katta yoshdagi o'quvchi va talabalarda esa Navoiy asarlari orqali falsafiy fikrlash, axloqiy tanlov va ijtimoiy mas'uliyat masalalarini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir ^[6:67].



Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, Alisher Navoiy merosi yoshlar ma'naviy-estetik tarbiyasi uchun ko'p qirrali manba hisoblanadi. Bu meros orqali ona tiliga hurmat, badiiy did, axloqiy fazilat, ijodiy fikrlash, tarixiy xotira va milliy o'zlikni shakllantirish mumkin. Muhimi, Navoiy merosini o'qitishda faqat yodlashga asoslangan yondashuv yetarli emas. Uni hayotiy misollar, zamonaviy tarbiya muammolari va yoshlarning kundalik tajribasi bilan bog'lab tushuntirish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy ijodi Sharq ma'naviyati, turkiy adabiyot va o'zbek milliy tafakkuri taraqqiyotida beqiyos o'rin tutadi. U adabiyotni insonni tarbiyalovchi, jamiyatni ma'naviy jihatdan yuksaltiruvchi va xalqni ezgulikka boshlovchi kuch sifatida talqin etdi. Shoirning asarlarida ilgari surilgan ilm-ma'rifat, adolat, halollik, saxovat, ona tiliga hurmat va komil inson g'oyalari bugungi ta'lim-tarbiya jarayoni uchun ham ahamiyatini yo'qotmagan.

Navoiy merosining asosiy tarbiyaviy kuchi shundaki, u yoshlarni faqat badiiy matn bilan tanishtirmaydi, balki ularni fikrlashga, o'zini anglashga, yaxshi-yomonni farqlashga, jamiyat oldidagi mas'uliyatini tushunishga undaydi. Uning asarlarida insonning ichki dunyosi, ruhiy kamoloti va axloqiy qiyofasi chuqur ochib beriladi. Shu bois Navoiy merosini o'rganish yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda, estetik didini rivojlantirishda va milliy o'zlikni mustahkamlashda muhim pedagogik vosita bo'lib xizmat qiladi.

Maqola yuzasidan quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Alisher Navoiy merosini ta'lim jarayonida faqat adabiy matn sifatida emas, balki ma'naviy-estetik tarbiya vositasi sifatida o'rgatish zarur.
2. Navoiy asarlarini o'qitishda muammoli savollar, bahs-munozara, ijodiy topshiriqlar, sahnalashtirish va badiiy talqin kabi faol metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq.
3. Shoir ijodidagi komil inson, adolat, ilm-ma'rifat va tilga hurmat g'oyalari yoshlarning real hayotiy tajribasi bilan bog'lab tushuntirish kerak.
4. Tasviriy san'at, musiqa, adabiyot va tarix fanlari o'rtasida integratsion yondashuv asosida Navoiy merosidan foydalanish yoshlarning badiiy-estetik dunyoqarashini kengaytiradi.
5. Oliy ta'lim muassasalarida Navoiy merosining pedagogik, estetik va tarbiyaviy imkoniyatlarini o'rganishga qaratilgan maxsus seminar, davra suhbatlari va ilmiy-amaliy mashg'ulotlarni ko'paytirish lozim.

Umuman olganda, Alisher Navoiy merosini chuqur o'rganish va uni zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish milliy ma'naviyatni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu meros yoshlarni ilmga, ezgulikka, badiiy go'zallikni anglashga va insoniylik mezonlari asosida yashashga chorlaydi. Shu jihatdan Navoiy ijodi bugungi kunda ham o'zining tarbiyaviy, estetik va ma'rifiy ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Narzullayevich R. N. Umumta'lim maktablari musiqa mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilarga ekologik tarbiya berish //conference of modern science & pedagogy. - 2025. - T. 1. - №. 5. - C. 167-172.
2. Jumaboyev, N. (2026). Possibilities of using the aesthetic heritage of oriental thinkers in youth education. *Humanities: Journal of Human Sciences*, 1(2), 53-59. <https://humansciences.uz/index.php/hs/article/view/87>
3. Pardaboevich J. N. Interpretation of the Problem of Educational use of Aesthetic Views of Eastern Thinkers in Pedagogical Research //Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL). - 2024. - T. 3. - C. 9-9.
4. Pardaboevich J. N. The application of eastern philosophical aesthetic concepts in artistic education and their interpretation in pedagogical research //pedagogik islohotlar va ularning yechimlari. - 2025. - T. 14. - №. 01. - C. 218-222.
5. Ogli, Sattarov Alisher Alikul. "musiqa darslarida raqamli muhit orqali o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish." *Бюллетень педагогов нового Узбекистана* 2.4 (2024): 5-8.
6. Nuraliyeva, Z. "maktabgacha yoshdagi bolalarning estetik tarbiyasida musiqaning o'рни." *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика* 4.1 (2025): 67-69.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.